

ZAMONAVIY SHE'RIYATDA YOMG'IR OBRAZI

Normengova Dildora Mahmarasul qizi*Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: *qor, do'l, shabnam kabilar, jumladan, yomg'ir suvning evrilishlaridan yuzaga kelgan. Xalq lirikasida yomg'ir osmon suvi sifatida hosildorlik kulti bilan bog'lanadi. She'riyatda yomg'ir ramziy ma'no kasb etadi. Maqolada shu haqda fikr boradi.*

Kalit so'zlar: *she'r, obraz, folklorshunos, lirik qahramon, badiiyat, ramz, xalq lirikasi, zamonaviy she'riyat.*

Yomg'ir – tabiatning barcha uchun birdek yoqimli bo'lgan mo'jizakor tuhfasidir. Yomg'ir ko'ngillarga xush yoquvchi, o'z-o'zidan zavq ato etuvchi tabiat hodisasidir. To'da-to'da bulutlardan mayin yog'ayotgan yomg'irlar qorlarni eritib, olamning hayot manbai bo'lmish obi-hayot ya'ni suv bilan butun borliqni ta'minlaydi. Yomg'ir tabiatni tozalaydi. Yomg'ir yog'ganda havo shunchalar musaffo bo'ladiki, insonni bahri dili ochiladi. Ayniqsa, yomg'ir yog'ganda taralgan ifor juda ham yoqimli bo'ladi. Yomg'ir olamni chang-g'ubordan tozalash bilan birgalikda juda ham foydalidir. Yomg'ir suv yetib bormaydigan joylarni ham suv bilan ta'minlaydi yerga, jamiki, mavjudotga hayot baxsh etadi. Yomg'ir hosillarimizga baraka ato etadi. Xalqimizda shunday naql bor: "Yomg'ir yog'sa yerga foyda, yer ko'karsa elga foyda" deyishadi. Shuni aytish joizki, yomg'ir Allohning rahmatidir:

Yomg'ir emas, marvarid yog'ar,

Yomg'ir – kecha shaklida bu on.

Suv singari jildirab oqar,

Kecha kechar shod va bearmon [3.86].

Shoir Rauf Parfi ijodida yomg'ir obrazi takror-takror uchraydi. Shoir yuqoridagi satrlarda yomg'irni marvaridga qiyoslaydi. She'riyatimizda yomg'ir obrazi, avvalo, o'z ma'nosida va ko'pgina ko'chma ma'nolarda ham qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. Yetik shoirimiz Rauf Parfining "Yomg'ir yog'ar bu tun, ehtimol" she'rini oladigan bo'lsak, yomg'ir obrazi shoirning qator she'rlarida tun bilan birga ifoda etilgan. Ehtimol bu lirik qahramonning tungi o'ylarini, bedor qalbini ifodalash uchun zarurdir:

Yomg'ir yog'ar bu tun, ehtimol,

Qozoq ovul usti qorong'u.

Darpardani o'ynaydi shamol,

Asta yumar ko'zingni uyqu,

Xayrli tun [3.144].

Yomg'ir – shoirlarga ilhom ato etuvchi kuch, dardkash, lirik qahramonning qayg'ularini ifodolovchi obraz sifatida ham gavdalanadi. Rauf Parfi "Derazamdan boqar zulmot" satri bilan boshlanuvchi she'rida yomg'ir bilan zulmatni raqib kuchlar

sifatida tasvirlaydi. O'z kechimalarini ham shu zidlikka bog'lab ifodalaydi. Demak, yomg'ir ezgulik jangchisi:

Nega tushunmayman, nega? Dod!

Yomg'ir – dunyo singari og'ir.

Derazamdan boqar zulumat,

Zulmat bilan jang qilar yomg'ir [3.169].

Shoir yomg'irni obrazga aylantiradi, uni jonlantiradi, natijada satrda tashxis san'ati yuzaga keladi. Folklorshunos A.Musaqulov "Xalq ijodida yomg'ir va shabnam xosiyatli hodisa, obi hayot darajasigacha ko'tarilgan" [1.200] deb hisoblaydi. Xalq lirikasi namunalarini o'rganish asosida olimning fikrlari o'rinli ekaniniga guvoh bo'lish mumkin. "Zamonaviy she'riyatimizda yomg'ir darddosh, baraka, tozalik va musaffolik ramzi sifatida she'rga solinganini kuzatishimiz mumkin. Olima L.Sharipova "Yomg'ir yuqori olam suvi sifatida ardoqli. Tabiatning bu go'zal ne'mati suvning evrilish tizimida o'z o'rniga ega. Shu sababdan, asrlardirki, obrazga aylanib badiiy adabiyotni bezab kelmoqda" [5.20] deb hisoblaydi.

Yomg'ir yog'sa bemahal

Kuyar o'zbek dehqoni:

– Hosilni poymol qildi,

Yetdi qancha ziyoni [2.46].

Abdulla Oripovning "Yomg'ir" she'ridagi ushbu misralarda yomg'irning salbiy ta'siri ifoda etilgan, bemahal yog'gan yomg'ir o'zbek dehqonlariga zarar keltirishi ta'kidlangan. Haqiqatda yomg'ir obrazi rang-barang ma'no tashiydi, turli holatlarda kelishini ham kuzatishimiz mumkin. Hatto bemahal yog'gan yomg'ir dehqonlarga zarar keltiruvchi bo'lsa, salbiy obrazga aylanishini yuqoridagi satrlardan anglash mumkin. Ammo aksar hollarda ijodkorlar yomg'ir butun olamni zavqqa to'ldirishini, shoirlarga ilhom baxsh etishini ifodalaydilar. Ba'zi she'rlarda esa yomg'ir yog'sa atrof muhitdagi chang-g'uborlar ketib, tabiat yangilanishi, yomg'ir bilan birga Alloh baraka tarqatishi, yomg'ir barchaga turlicha ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi.

Tashqarida yomg'ir yog'ar,

Ko'z yoshdan ham og'ir yog'ar,

Bu yuraksiz dunyo uzra,

Yurak yog'ar, bag'ir yog'ar.

Ayriliqqa ko'nim yo'qdir,

Nahot, ishqqa o'lim yo'qdir.

Ko'z yoshingni artmoqlikka

Qo'lim yo'qdir,

Ko'nglim yo'qdir... [4.253]

Usmon Azimning "Tashqarida yomg'ir yog'ar" she'rida yomg'ir ishq va ayriliq dardidan kuygan oshiqning ko'z yoshlari timsolini aks ettirmoqda. Oshiq ayriliqni tan olmaydi, yuragidagi ishq o'ti o'chmaydi. U shunchalar ko'z yosh to'kmoqdaki, ko'z yoshlarini artmoqqa qo'l ham, ko'ngil ham topilmaydi...

Barchamizga zavq-u shavq ulashuvchi yomg'ir she'riyatimizda ba'zan ko'z yoshlarga ma'nodoshlik qiladi. She'riyatimizda yomg'ir obrazining bahor yomg'iri, yoz yomg'iri va kuz yomg'iri kabi ko'rinishlari mavjud. Bahor yomg'iri tozalik, musaffollik, yosharish va baraka ramzi hisoblanadi. Yoz yomg'iri iliqlik va sokinlik ramzidir. Shoir Rauf Parfi yoz yomg'irini shunday tasvirlaydi:

Yoz yomg'iri iliqlikdir biram,
Shitir-shitir uning qo'shig'i.
Bir shirin hid taralar yerdan
Va yurakka ketar qo'shilib [3.68]...

Shoir yoz yomg'iri issiq kunda yog'ganligi sababli iliq bo'lishini, shitir-shitir qo'shig'i va shirin hidi shoirga huzur baxsh etishini tasvirlaydi. Yoz yomg'irini kim qanday tasvirlaydi bilmadim-u, men yoz yomg'iri deganda, avvalo, issiq kunlarda dalalarda, mehnat chog'ida yog'gan yomg'ir issiq yerga tushib o'zidan xushbo'y hid taratadigan, insonlar taniga rohat baxsh etadigan yomg'irni tasavvur qilaman. Ammo xalqimiz yozda yog'gan yomg'irni osmondan ilon yog'gan kabi ofatli ekanini ta'kidlaydi. Chunki yozda yomg'ir ekinlarga, daraxtlarga zarar keltiradi. Demak, yomg'ir qay tarzda tasvirlanganiga qarab ham rang-baranglik kasb etadi.

Kuz yomg'iri qish kelayotganidan darak beruvchi, to'kilayotgan barglarning ko'z yoshlarini yuvuvchi, turli chang-g'uborlardan tabiatni tozalab, hosillari yig'ib olingan yerlarni bahorgacha orom olishga tayyorlamoqchi bo'layotgan yomg'ir, nazdimizda.

Dunyo aholisi turli xil. Har bir insonning o'z dunyosi mavjud. Shunday ekan, tabiat mo'jizasi bo'lmish yomg'ir ham hammaga birdek ahamiyat kasb etmaydi. Kimlardir yomg'ir yog'ishini intizorlik bilan kutadi, yana kimdir esa yomg'irni umuman xohlamaydi. Kimdir yomg'irni baxt elchisi desa, kimdir uchun esa g'am-alam kuychisidir. Aynan shu tasavvurlar zamonaviy o'zbek she'riyatidagi yomg'ir obrazida mujassam qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – 308 б.
2. Oripov A. Tanlangan asarlar. – Т.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019. – B.101.
3. Рауф Парфи. Бир қушча сайрайди менинг руҳимда... Сайланма. – Т.: Муҳаррир, 2022. – 416 б.
4. Усмон Азим. Сайланма. Балладалар. – Тошкент: Шарқ, 1995. – Б.253.
5. Sharipova L. Замонавий шеърятда ёмғир образи // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
6. Sharipova L., Boboxo'jayeva L. A. XALQ OG 'ZAKI IJODINING USMON AZIM IJODIGA TA'SIRI MASALASI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 6. – С. 948-952.
7. Sharipova L. F. Literary riddles //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 10. – С. 342-346.

8. Sharipova L. BOLALAR ADABIYOTINING NOZIKTA'V ZARSHUNOSI //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – Т. 1. – №. 4. – С. 67-70.
9. Шарипова Л., Низомова К. ЎЗИГА ХОС ШЕЪРИЯТ //Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 19-21.
10. Sharipova L. F. Literary riddles //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 10. – С. 342-346.
11. Sharipova L. Замонавий шеъриятда ёмғир образи //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
12. Шарипова Л. БОЎИЙ МАВЗУДА БИТИЛГАН ШЕЪРЛАР: Шарипова Лайло, ф. ф. д., ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, Бухоро давлат университети //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 5. – С. 52-56.
13. Sharipova L., Boboxo'jayeva L. A. XALQ OG 'ZAKI IJODINING USMON AZIM IJODIGA TA'SIRI MASALASI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 6. – С. 948-952.
14. Sharipova L. ALISHER NAVOIY IJODIDA LUG 'Z //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 4. – №. Conference Proceedings 1. – С. 387-391.
15. Sharipova L. Literary yor-yor //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 4. – С. 218-222.
16. Sharipova L. XX asrning 70–80-yillari o 'zbek she'riyatida folklorizm //Toshkent: Fan. – 2011. – Т. 153.